

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MUSTAFAYEVA SAMIDA TOSHMUXAMMEDOVNA

**MING DAVRI ROMANLARI TILINING MORFOLOGIK,
LEKSIK-SEMANTIK VA FRAZEOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO'K: 811.411(038)

KBK: 81.2

M-89

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Content of the abstract of Doctoral (DSc) dissertation
in philological sciences**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации по
филологическим наукам**

Mustafayeva Samida Toshmukhammedovna

Ming davri romanlari tilining morfologik, leksik-semantik va frazeologik
xususiyatlari 3

Mustafaeva Samida Toshmukhammedovna

Morphological, lexical-semantic and phraseological features of the
language of novels of the Ming period 27

Мустафаева Саида Тошмухаммедовна

Морфологические, лексико-семантические и фразеологические
особенности языка романов периода Мин..... 51

Эълон қилинган ишлар рўйхати List of published works

Список опубликованных работ 56

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MUSTAFAYEVA SAMIDA TOSHMUXAMMEDOVNA

**MING DAVRI ROMANLARI TILINING MORFOLOGIK,
LEKSIK-SEMANTIK VA FRAZEOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Fil169 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuos.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Mannonov Abdurahim Mutalovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Dadaboyev Hamidulla Aripovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Nasirova Saodat Abdullayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Odilov Yorqinjon Raxmonaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___»_____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrizabz ko'chasi, 16-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___»_____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___»_____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Q.Sh.Omonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
v.v.b., filol.f.d., professor

R.A.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., dotsent

X.Z.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asarlarning lingvistik tadqiqi doim alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Zero, badiiy asarlar, ayniqsa, badiiy nasr tilning leksik, grammatik, stilistik jihatlarini anchayin keng miqyosda namoyon eta olgani bois nafaqat struktur tilshunoslik, balki bugungi kunda jadal taraqqiy etayotgan kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar uchun ham aniq va qimmatli g'oyalar berish, puxta nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, badiiy nasrning o'rganilishi til shakllanishining davriy xususiyatlari, uning rivojlanish an'anasi va omillarini belgilashda qimmatli manba sanaladi. Shu bois badiiy adabiyot barcha zamonlarda, xususan, bugun ham tilga xos xususiyatlar, uning leksik fondi va grammatik qurilishini aniqlash, asarlarda milliy tafakkur va adabiyotning yaratuvchisi bo'lmish millat tafakkurida botiniy dunyo manzarasini tasvirlash, asar ta'rif etilgan tilning taraqqiyot bosqichlarini belgilash kabi qator dolzarb masalalarni yechish uchun asosiy manba bo'lib qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida tilning tarixiy taraqqiyotini muayyan davrlar kesimida, ayniqsa, tarixiy davrlarga xos yozma yodgorliklar asosida o'rganish diaxron va sinxron aspektdagi tadqiqotlar uchun qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Zero, bunday tadqiqotlar til taraqqiyoti dinamikasini belgilash, ma'lum davr adabiy til me'yorlarini aniqlash, tilning leksik fondi va stilistik imkoniyatlari, rivoji, grammatik me'yorlarining o'zgarishi yuzasidan aniq xulosalar berish kabi qator masalalar yechimini topishda dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, bugungi kunda iqtisodiy, investitsiyaviy, moliya, savdo-sotiq, siyosiy, madaniy-gumanitar sohalarida jadal rivojlanmoqda. Hamkorlik munosabatlarining taraqqiy etishidan har ikkala davlat ham manfaatdor. Zero, "...O'zbekiston Xitoyning do'stona qo'shnisi va har tomonlama strategik hamkori sifatida bu mamlakatning turli jabhalarda erishayotgan muvaffaqiyatlardan chin dildan mamnun. Xitoy bilan ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi"¹. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi mustahkam huquqiy bazaga asoslangan o'zaro manfaatli va serqirra hamkorlikning izchil rivojlanishi o'z navbatida, xitoyshunoslikda chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan, xitoy tilini mukammal egallagan mutaxassis-kadrlarga bo'lgan ehtiyojning kun sayin ortishiga sabab bo'lish bilan bir qatorda, kadrlar tayyorlash sifatiga doir talabni ham oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini

¹ Мирзиёев Ш.М. Узбекистан – Китай: дружба и сотрудничество длиной в тысячелетия// www.people.com.cn. 22-01-2024.

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-dekabrda PQ-447-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Ming davri yodgorliklari, xususan, davr yodgorliklari tili tadqiqi dunyoning qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilgan. 广西民族大学 Guangxi millatlar universiteti (Xitoy), 四川外国语大学 Sichuan chet tillari universiteti (Xitoy), 大東文化大学 Daito Bunka (Sharq madaniyati) universiteti (Yaponiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari instituti (Rossiya, Sankt-Peterburg), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (O'zbekiston) shular jumlasidandir. Bu boradagi tadqiqotlar hamon davom etmoqda.

Bunday tadqiqotlar natijasida Ming davri kundalik proza janri leksikasining struktur va semantik xususiyatlari ochib berilgan, xitoy tili katta lug'atini tuzishda Ming davri romanchilik namunasi "Shuyxu juan" til materiallaridan foydalanish masalasi (Xitoy), xitoy bayxua tili leksikasi, "Shuyxu juan"da yordamchi so'zlarning lingvopragmatikasi dalillangan (Yaponiya), xitoy tilining tarixiy grammatikasi, pinxualarda qo'llangan so'zlarning morfologik xususiyatlari, grammatik konstruksiyalar tahlili yuzasidan monografik tadqiqotlar amalga oshirilib, bir tilli izohli va ikki tilli tarjima lug'atlar nashr etilgan. Shuningdek, xitoy mumtoz adabiyoti namunalarini tadqiq etish hamda o'zbek tiliga tarjima qilish borasida O'zbekistonda ham bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Ching davri nasri poetikasi, Tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi ilmiy tadqiq etilgan. Pu Sungling novellalari, Tang davri she'riy asarlaridan namunalar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Qolaversa, xitoy bayxua tilining taraqqiyot boschiqlari xitoy ilmiy adabiyotlariga tayanib tavsiflangan (O'zbekiston).

Jahon tilshunosligida Ming davri romanlari tilini o'rganish sohasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: Ming davri romanlarida mustaqil so'zlarning struktur, funksional-semantik xususiyatlarini asoslash; Ming davri romanlarida til birliklarining metaforik qo'llanishini ochib berish; Ming

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: <http://www.gxmzu.edu.cn>, <http://www.sisu.edu.cn>, <http://www.cnki.net>, www.daito.ac.jp, <http://www.orientalstudies.ru>, <http://www.springernature.com>, <http://www.dissercat.com>, <https://tsuos.uz>, <https://diss.natlib.uz>.

davri leksikasida o‘zlashmalar ulushini aniqlash; Ming davri romanlari so‘z boyligini aks ettiruvchi ikki tilli tarjima lug‘atlarini tuzish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ming davri xitoy adabiyoti tarixida yangi janrdagi asarlarning yuzaga kelishi va ushbu janrda yaratilgan durdona asarlarni jahon adabiyotiga taqdim etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ming davri badiiy asarlari, xususan, roman janrining yuzaga kelishi hamda ushbu o‘ziga xos romanchilikning taraqqiy etishi keyingi davr xitoy adabiyoti nasriy asarlari takomiliga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bois Ming davri romanlari bo‘yicha nafaqat xitoy, balki dunyo adabiyotshunosligida salmoqli tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Xitoyda Ming davri romanlarida ayol obrazi, “G‘arbiga sayohat” romanida ilohiy obrazlar, ayni davrda romannavislik san‘ati³ kabi qator mavzularda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Davr yodgorliklarining lingvistik tadqiqi asosan XXRda olib borilgan bo‘lib, unda kundalik nasr janri leksikasi, o‘zlashma so‘zlar, “Shuyxu juan”da ravishlar va yuklamalar, davr yodgorliklarida muayyan leksik qatlamning uyg‘ur tiliga tarjimasi kabi jihatlar tadqiq etilgan⁴.

Xitoy tili tarixiga oid ayrim masalalar, xususan, miloddan avvalgi V-I asrlar xitoy tili, xitoy tili tarixiy grammatikasida morfologiya va sintaksis masalalari, Tang davri xitoy tilining grammatik xususiyatlari, Sung va Yuan davri pingxualari misolida xitoy tili tarixiy grammatikasi tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiya, monografiya va qo‘llanmalar yozilgan⁵.

O‘zbek xitoyshunosligida ham Ming davri adabiyoti, tarixi, xususan, qadim va o‘rta asrlar xitoy adabiyotida asosiy janrlar va badiiy asarlarning syujet qurilishi, xitoy-bayxua tilining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari, Ming davrida Xitoy va Markaziy Osiyo aloqalariga oid tadqiqotlar olib borilgan hamda ularning natijasida darslik, monografiyalar nashr etilgan⁶.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini o‘rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari” mavzuidagi ilmiy yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

³ 李响.明代小说中的女性与科举研究: 博硕论文. -华东交通大学, 2018.; Li Siang. Ming davri romanlarida ayollar obrazining ilmiy tadqiqi: Doktorlik diss. – Huadun kommunikatsiya universiteti, 2018; 卢梦. 略论明代小说中神魔叙述的转变:博硕论文-湖北师范大学, 2018; Hu Meng. Ming davri nasrida ruhlar va iblislar tasvirida burilishlar: Doktorlik diss. – Hubei pedagogika universiteti, 2018; 张智颖. 明代长篇小说开篇艺术研究: 硕士论文. -长春师范大学, 2017. Jang Jiyi. Ming davri romanlari fasllarda kirish so‘zlarning badiiy san‘ati tadqiqi. -Changchun pedagogika universiteti, 2017.

⁴ 王晓惠. 明代笔记小说词汇研究.博士学位论文. -广西民族大学, 2022. 180 页; Vang Syaohuy. Ming davri kundalik nasr janri leksikasi tadqiqi: filol.fan.dok. ... diss. – Guangsi Millatlar universiteti, 2022. – 180 b.

⁵ Никитина Т.Н. Хрестоматия по древнекитайскому языку (V – I вв. до н.э.). – Ленинград, 1982. – 148 с., 太田辰夫. 中国语历史文法. -北京: 北京大学出版社, 2003. 500 页., Кондратьева Е.Б. Грамматические особенности китайского языка эпохи Тан. Дисс. ...канд.филол.наук. Санкт-Петербург, 2007. – 178 с., Гуревич И.С. Историческая грамматика китайского языка: язык прозы на байхуа периода Сун-Юань (пинхуа).- Санкт-Петербург, 2008. – 225 с.

⁶ Зиямухаммедов Ж., Очиллов О. Хитой адабиёти (Қадим ва ўрта асрлар).- Т., 2021. – 223 б., Ҳасанова Ф. Хитой-байхуа тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари. – Т., 2023. – 155 б., Каримова Н.Э. Взаимоотношения Центральной Азии и Китая в XIV-XVII вв. (по материалам китайских источников). – Т., 2005. – 198 с.

Tadqiqotning maqsadi Ming davri ilk bosqichi romanlari tilining morfologik, leksik-semantik va frazeologik tadqiqini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ming davri romanlarining yuzaga kelish shart-sharoitlari, ularning ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy jihatdan o'ziga xosligi, adabiy jarayonlar hamda ularning davr tili taraqqiyotiga ta'siri masalasini aniqlash;

Xitoy adabiy tilining takomili masalasi va unda Ming davri romanchilik namunalari o'rnini belgilash hamda o'rganilayotgan davrgacha bo'lgan Sung, Yuan sulolalari davri xitoy tilining morfologik, leksik jihatlarni tavsiflash;

Tadqiqotga asosiy manba sifatida tanlangan "Shuyxu juan" va "Sanguo yan'i" romanlari leksikasi tarkibida o'z qatlamning struktur xususiyatlari va yasaliş yo'llarini belgilash;

Ming davri romanlarida o'zlashma qatlam va uning xitoy tilida voqelanishini o'rganish;

Davr romanlari leksikasining mavzuiy guruhlarini ajratish hamda romanlar leksikasida aks etgan shakl va ma'no munosabatini aniqlash;

Davr romanlarida qo'llangan frazeologizmlarning struktur, semantik-funksional xususiyatlarini dalillash hamda Ming davri romanlarining xitoy adabiy tili leksik fondini leksik va frazeologik birliklar bilan boyitishdagi o'rnini belgilash.

Tadqiqotning ob'yektini Ming davri ilk bosqichiga oid "Shuyxu juan" (《水浒传》) va "Sanguo yan'i" (《三国演义》) romanlari tili tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti. "Shuyxu juan" (《水浒传》) hamda "Sanguo yan'i" (《三国演义》) asarlari misolida Ming davri xitoy adabiy tili leksikasi va frazeologiyasini genetik, struktur-morfologik hamda funksional-semantik nuqtai nazardan tadqiq etish ishning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda sinxron va diaxron tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, statistik, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi:

Sung va Yuan sulolalari davrida xitoy adabiy tilining leksik, morfologik sathlarida kechgan o'zgarishlari xitoy va xorij tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida o'rganilgan hamda xitoy adabiy tili takomilida Ming davri romanlari bir bosqichni ikkinchi bosqich bilan bog'lovchi "ko'priq" vazifasini o'tagani dalillangan;

Ming davri birinchi yarmiga oid "Shuyxu juan" va "Sanguo yan'i" romanlari leksikasi tarkibida o'z qatlamning struktur xususiyatlari ikki romanni o'zaro qiyoslagan holda ochilib, ularda 喝采 hècǎi "baland ovozda gapirmoq", 入肩 rù jiān "birgalikda harakat qilish; muayyan maqsad yo'lida birlashish", 落草 luòcǎo "qaroqchi", 阿叔 āshū "qayin ini" kabi murakkab so'zlar asosan, sintaktik, qisman morfologik va semantik yo'llar bilan hosil qilingani isbotlangan;

Ming davri romanlarida 导师 dǎoshī "buddaviylik etakchisi; Budda", 方丈 fāngzhàng "Budda ibodatxonasi bosh rohibi yoki bosh rohibning xonasi", 度牒 dùdié rohiblarga beriladigan maxsus hujjat, 站 zhàn "bekat; to'xtash joyi; yom (yoki yomxona)" kabi o'zlashma qatlamga mansub so'zlar va ularning xitoy tilida voqelanishi aniqlangan;

Ming davri romanlari leksikasining “shaxsni ifodalovchi leksika”; “joy va makonni anglatuvchi soʻzlar”; “oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi soʻzlar” deb nomlangan uch maʼno guruhi ajratilgan va davr romanlari leksikasining ushbu mavzu guruhlariga kiruvchi leksik birliklari oʻrtasida sinonimlik, omonimlik va antonimlik munosabatlari dalillangan;

Ming davri romanlari, xususan, “Shuyxu juan”da 582ta, “Sanguo yan’i”da 421ta frazeologik birliklarning qoʻllanishi ularda kechgan shakl va maʼno oʻzgarishlari oʻrganilib, ularning xitoy adabiy tili soʻz xazinasini leksik va frazeologik birliklar bilan boyitishdagi oʻrni belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ming davriga oid romanlarda qoʻllangan, davr tiliga xos, Ming davrida soʻz yaslashida faol til birliklarining tahlillari amalga oshirilgan;

Davr romanlarida qoʻllangan frazeologik birliklarning struktur-semantik jihatlari oʻrganilib, ularga lingvopragmatik nuqtai nazardan xulosalar berilgan;

Tadqiqotda tahlilga tortilgan leksik va frazeologik birliklar Ming davri leksikasi va iboralari lugʻatini tuzishda asosiy material vazifasini oʻtagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqot ishi Ming davri badiiy nasri namunalari “Shuyxu juan” (《水浒传》) va “Sanguo yan’i” (《三国演义》) romanlarining Xitoyda nashr qilingan asliga eng yaqin nusxalari zaminida olib borilgani, shuningdek, tadqiqot doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ensiklopedik va izohli lugʻatlar, ishonchli akademik nashrlardan foydalanilgani, Oʻzbekiston hamda xorijda xitoy tili tarixi tadqiqi bilan shugʻullangan xitoy tilshunoslarining fikrlariga murojaat qilingani, tadqiqot yoʻnalishi va ilmiy izlanish mohiyatidan kelib chiqqan holda tanlangan tadqiqot usullari, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani tegishli tashkilotlardan olingan rasmiy hujjatlar bilan asoslanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ming davri romanlarining leksik qatlamlari masalasi tadqiqi doirasida xitoy adabiy tili soʻz boyligi taraqqiyot dinamikasini belgilash, xitoy tili leksikasi taraqqiyotida ichki va tashqi omillar taʼsirini aniqlash, leksika tarkibiy qismlari va soʻzlarning stilistik vazifalarini yoritish kabi vazifalar amalga oshirilganligi bilan xitoy tili leksikasi, leksikografiyasi, stilistikasi, xitoy badiiy asarlarining lingvistik oʻrganilishiga bagʻishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy asosi boʻla oladi.

Tadqiqot natijalari xitoy tili, xitoy tili leksikologiyasi, xitoy tili tarixi, xitoy tili stilistikasi, matn lingvistikasi kabi maxsus kurslar oʻqish, lugʻatlar tuzish, qolaversa, xitoy adabiyoti namunalari tarjima qilishda qoʻl keladi. Bu jihat oʻz navbatida, ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xitoy Ming davri romanlari tilining morfologik, leksik-semantik va frazeologik xususiyatlariga oid tadqiqot natijalari asosida:

Xitoy Ming davri romanlari leksikasining genetik va funksional, struktur, semantik xususiyatlariga oid tadqiqot natijalaridan Xitoy Xalq Respublikasi Shimoli-Gʻarbiy millatlar universiteti (西北民族大学) akademik tadqiqotlar boʻlimi xalqaro loyihalari doirasida amalga oshirilgan “Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi” monografiyasini xitoy tiliga tarjima qilish boʻyicha amalga oshirilgan ilmiy-amaliy loyiha doirasida

foydalanilgan (Xitoy Xalq Respublikasi Shimoli-G'arbiy millatlar universiteti (西北民族大学) ning 2020-yil 4-dekabrda ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy leksika, ayrim unvon va rutbalar, harbiy istilohlar, toponimlarning xitoy tiliga tarjimasi aniq chiqishi hamda tarjimadagi muqobilini muvafaqqiyatli topishga erishilgan;

Ming davri romanlarining yuzaga kelishi, davr romanlarida uchraydigan frazeologizmlar tahliliga oid tadqiqot natijalaridan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida amalga oshirilgan OT-F1-67 "Ipak yo'li mintaqasi xalqlari folklorining tipologiyasi, milliy o'ziga xosligi va yozma adabiyot rivojida tutgan o'rni" nomli ilmiy-tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2023-yil 20-fevraldagi 01-04-01/264-son ma'lumotnomasi). Natijada xalq orasida keng yoyilgan rivoyatlar xitoy adabiyotidagi ilk romanchilik namunalari syujetiga asos bo'lganini tavsiflash orqali xitoy yozma adabiyoti rivojida folklorning o'rnini batafsil yoritish va xitoycha frazeologik birliklarning ma'nolarini o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilishga xizmat qilgan;

Ming davri leksikasi, jumladan, "Shuyxu juan (Daryo o'zanlari)" romanida qo'llangan leksika qatlamlari, davr leksikasining struktur, semantik, funksional xususiyatlari hamda uning xitoy adabiy tili shakllanishidagi o'rni, davr yodgorliklarida ishlatilgan frazeologizmlarning o'zbek tiliga tarjimalari masalalaridagi tahlillar va xulosalardan TDSHU huzuridagi "Konfusiy nomidagi o'zbek-xitoy instituti" NNT o'quv faoliyati jarayonida foydalanilgan (Konfusiy nomidagi o'zbek-xitoy instituti" NNTning 2023-yil 17-fevraldagi 17/23-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ta'lim muassasasida tahsil oluvchilarning xitoy tili bilimlari, ayniqsa, yozma til kompetensiyalarini oshirishga, ularning xitoy tili darajasini aniqlashga qaratilgan imtihonlarida HSK 5, HSK 6 darajalarini olishga erishilgan;

Ming davri romanlarida uchraydigan antroponim, toponim, glyutonim, etnonimlar semantik guruhlariga oid tahlillar, asarlarning xitoy adabiy tili takomilidagi o'rni, qolaversa, tarixiy asarning xitoy tili leksikasida o'z qatlamni tiklashdagi ahamiyati borasidagi tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Madaniy meros ob'ektlari va san'at ashyolarini restavratsiya qilish ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Madaniy meros ob'ektlari va san'at ashyolarini restavratsiya qilish ilmiy-tadqiqot markazi 2023-yil 21-fevraldagi 12-son ma'lumotnomasi). Natijada markazda tashkil etilgan seminarida Sharq madaniy merosini badiiy nasr namunalari orqali chuqurroq o'rganish, xususan, xitoy madaniy merosida Ming davri romanlarining o'rni, davr romanlarida xalq madaniyati, urf-odatlarini, an'ana va falsafiy qarashlarini til birliklari vositasida tasvirlangani haqida bilimlarni kengaytirishga xizmat qilgan;

Xitoy Ming davri nasri namunasi "Uch shohlik" (《三国演义》) ning syujet qurilishi va asarning xitoy adabiy tili rivojiga qo'shgan hissasi yuzasidan olingan xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Dunyo bo'ylab" telekanali "Efirda biz" kursatuvining maxsus sonini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Dunyo bo'ylab" telekanali davlat muassasasi 2022-yil 2-fevraldagi 03-14-40-son ma'lumotnomasi). Natijada XIV-XV asr xitoy va turkiy xalqlar

badiiy nasrining o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan. Ikki xalq adabiy yodgorliklaridagi unikalilar chog'ishtirish yo'li bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (10 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 199 sahifadan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va ob'yekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliliigi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi «**Ming davri romanlarining xitoy tili taraqqiyotidagi ahamiyati**» deb nomlangan bo'lib, unda Ming davri romanlarining vujudga kelish sharoiti, davr romanlarining xitoy adabiy tili taraqqiyotidagi o'rni, Ming davriga qadar xitoy bayxua tilining takomili, davr romanlarining filologik tadqiqi masalalari o'rganilgan.

Ming davri (明朝 *Mingcháo* 1368-1644) xitoy adabiyotiga yangi janr - romanchilik janrini olib kirgan davr sanaladi. Aynan shu kezlarda mumtoz xitoy adabiyotining durdona romanlari yaratilgan. Davr asarlari qadimgi xitoy madaniyati, milliy o'ziga xoslik, ijtimoiy hayot hamda siyosiy vaziyat haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba sanalishi bilan bir qatorda, adabiy til rivojida yangi bosqichni boshlab bergani bilan ham ahamiyat kasb etadi. Shu bois Ming davri asarlari xitoylik hamda chet ellik tadqiqotchilarining e'tiborini doim tortib kelgan.

Ming sulolasi davri feodalizm susaygan va kapitalistik munosabatlar kurtak ota boshlagan davr sanaladi. Bunday ijtimoiy o'zgarish adabiyot taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Badiiy adabiyotdagi an'analar asosi hamda yangi imkoniyatlar ta'sirida Ming davri adabiyoti yangicha ruhda rivojlana bordi va oldingi davr so'z san'ati namunalarini takrorlamaydigan sara asarlar bilan xitoy adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rinni egalladi.

Davr nasriy asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki tilning leksik, grammatik, stilistik kabi qator qatlamlarini boshqa davrlardan farqli aks ettirgani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Ming davri nasrining hozirgi xitoy tili shakllanishi, sayqal topishi va takomilida o'rni beqiyosdir.

Tilshunoslikda tilning diaxron tadqiqi, til sathlarining taraqqiyoti, ulardagi rivojlanish an'anasini aniqlash, ma'lum sath yoki umuman tilning shakllanish va taraqqiyot dinamikasi yuzasidan xulosalarni berish o'rganilayotgan tilni davrlashtirish masalasiga chambarchas bog'liq bo'ladi. Zero, tilning muayyan sathidagi o'zgarishlar uning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra farqlanadi, yoki aksincha, til muayyan sathida kechgan o'zgarish mezon o'laroq u yoki bu tilning taraqqiyot bosqichini belgilaydi. Shunday ekan, Xitoyda Ming davri romanchilik namunalari tili morfologiyasi, leksikasi hamda frazeologiyasi tadqiqiga bag'ishlangan mazkur ish uchun ham o'rganilayotgan davr yodgorliklari tili, xususan, leksik qatlamlari xitoy tili taraqqiyotining qaysi bosqichiga to'g'ri kelishini aniqlash izlanish uchun asosiy manba sifatida tanlangan romanlarning nafaqat til taraqqiyotidagi o'rnini, balki uning tilshunoslik uchun ahamiyatini belgilashda asos bo'ladi.

Xitoy tilshunosligida tilni davrlashtirish masalasida mezonlar farqlanishi mumkin, ammo leksika – semantika masalasi bu borada asos o'lchovlardan sanalishi lozim⁷. Darhaqiqat, leksika – semantika masalasining til taraqqiyotini davrlashtirishda asosiy ko'rsatkich sifatida olinishi muhim masala. Zero, leksika til (ayniqsa, og'zaki so'zlashuv tili) uchun eng faol element hisoblanadi. Muayyan davrda tilning lug'at tarkibi va uning ma'no xususiyatida yuz bergan o'zgarish tilning sistem mohiyati o'zgarishiga ta'sir qiladi, bu esa davrlashtirish uchun olinadigan asoslardan sanaladi⁸. Modomiki, xitoy bayxua tili qadimgi so'zlashuv tilini yozuvda aks ettirgan til deya, e'tirof etilar ekan, leksik – semantik sathda kechgan o'zgarish ushbu til shaklini davrlashtirishning asos me'yoriy ko'rsatkichi hisoblanadi⁹. Bayxuaning og'zaki til shaklidan yozma manbalarga ko'chishi, adabiy til sifatida o'z o'rnini mustahkamlashi va hozirgi xitoy adabiy tiliga poydevor sifatida olinishigacha bo'lgan uzoq tarixiy jarayon, ushbu jarayonda sodir bo'lgan o'zgarishlarga tayanib, uni ibtido, takomil va yetuklik davrlariga ajratish mumkin. Chin va Xan sulolalari davridan Tang davrigacha (*bayxuaning* yozma til sifatida qo'llanishi) ilk bosqich, Tang davridan Ming davriga qadar (*bayxua* yozma til shakli maqomida tizimli taraqqiyoti) o'rta bosqich, Ming davridan Ching davrigacha (*bayxua* va *venyaning* parallel muomalada bo'lishi) so'nggi bosqichni tashkil qiladi¹⁰. O'zbek xitoyshunosligida eramizdan avvalgi III asrdan boshlab *bayxua* tilida yozib qoldirilgan adabiy manbalar: *byanvenlar*, *xuaben* va *pingxualar*, *djugongdyaolar*, *zadzyuy*, *yuylu* va romanlar tahlili asosida bayxua tili uch davrga ajratiladi: 1) bayxua tilining vujudga kelish davri – eramizdan avvalgi 207-yildan eramizning 618-yilgacha bo'lgan davr; 2) bayxua tilining rivojlanish davri – 618-yildan 1368-yilgacha bo'lgan davr; 3) bayxua tilining yetuk davri – 1368- yildan 1911-yilgacha bo'lgan davr¹¹.

Tilshunoslikda xitoy tili tarixiy taraqqiyoti, tilning rivojlanish bosqichlariga ko'ra davrlashtirish masalasi, unda leksik omilning tutgan o'rni yuzasidan xitoy va xorij tilshunoslarining qarashlari va mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xitoy

⁷ Bu haqida qarang: 徐时仪. 汉语白话史. – 北京: 北京大学出版社, 2017. 第 21 页. Syu Shi'i. Xitoy bayxua tili tarixi. – Pekin: Pekin universiteti nashriyoti, 2017. – B.21.

⁸徐时仪. Ko'rsatilgan asar.

⁹徐时仪. Ko'rsatilgan asar.

¹⁰徐时仪. 汉语白话史. – 北京: 北京大学出版社, 2017. 第 22-23 页.

¹¹ Хасанова Ф.М. Хитой-байхуа тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари: Филол.фан.фалс.док. (PhD) ... дисс.автореф. – Тошкент, 2021. -Б. 12-13.

tili taraqqiyot bosqichlarini belgilashda yakdil yondashuv mavjud emas, til taraqqiyoti davrlarini belgilash g'arb tilshunosligida asosan, xitoy tilining fonetik sathdagi o'zgarishlariga tayanilgan bo'lsa¹², rus xitoyshunoslari tilning fonetik va grammatik (ya'ni gap qurilishi, grammatik ma'noning ifodalanishi kabi) xususiyatlaridan kelib chiqqanligi¹³ ma'lum bo'ldi. Xitoy tilshunoslari esa o'tgan asrning 90- yillarida ham tilning fonetik, grammatik va ijtimoiy hayotga bog'liq taraqqiyoti¹⁴ dan kelib chiqib tilni takomil bosqichlarini belgilaganligi aniqlandi. Faqatgina 2000- yildan keyingi xitoy tilshunoslari amalga oshirgan tadqiqotlarda¹⁵ til taraqqiyotida leksik omil masalasi, tilning taraqqiyot bosqichlarida til leksik qatlamining o'rni xususida fikrlar avj olganini kuzatish mumkin. Xitoy tili taraqqiyoti, jumladan, leksik qatlam taraqqiyotini davrlashtirishda yana bir jihat, aksar ishlarda Xitoyda uzoq tarixiy davr mobaynida parallel muomalada bo'lgan ikki til shakli *venyan* va *bayxuaning* alohida emas, umumiy olgan holda qaralgani bu borada aniq xulosalarni olmaslikka sabab bo'lgan. Bizningcha, ikki til shaklining grammatik va ayniqsa, leksik sathdagi yaqqol farqlari, ularning qo'llanish jabhalari, xususan, venyaning asosan yozma shaklda, bayxuaning esa og'zaki so'zlashuv tilidan uzilmagan holda taraqqiy etishi ularning taraqqiyot bosqichlarini alohida ko'rishga yetarlicha asos bo'ladi.

Tadqiqot asosiy manbasi bo'lgan 《水浒传》 “*Shuyxu juan*” va unga zamondosh 《三国演义》 “*Sanguo yan'i*” asarlari ma'lum darajada *venyan* til unsurlarini o'zida mujassam etsa-da, *bayxuada* yozilgani, qolaversa, og'zaki so'zlashuv tili sifatida muntazam taraqqiy etgan, badiiy adabiyot tili sifatida yozma shakli me'yorlarini sayqallagan va adabiy til maqomiga ega bo'lgan, asosiysi hozirgi xitoy tiliga asos bo'lgan xitoy *bayxua* tili, uning yozma standart til *venyandan* asosiy farqini, shuningdek, *bayxua* tili tarixiy takomilini belgilab beruvchi muhim omil sifatida leksik qatlamning taraqqiyot bosqichlarini belgilash tadqiqotimizda yechimi taklif etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu masalada bizgacha bo'lgan qarashlar¹⁶ ni tahlil qilgan holda xitoy bayxua tili leksikasini quyidagi taraqqiyot bosqichlarini ajratish mumkin: 1) qadimgi davr – *venyan* leksikasi poydevorida shakllangan va asosan, buddizmga oid diniy asarlar tarjimasida boyigan ilk bosqich, Xan davridan boshlab, Tang davrini ham o'z ichiga olgan holda Sung sulolasigacha bo'lgan leksik takomil bosqichi. Garchi qator manbalarda Tang davri o'rta davrga kiritilsa-da, bizningcha bayxua leksikasi taraqqiyotida u ilk bosqich sanaladi. Chunki aynan, Tang davrida buddizmga xos adabiyotning katta qismi xalq so'zlashuv

¹² Pulleyblank E.G. Outline of classical Chinese grammar. – Vancouver, 1995. – 201 p.; Roger D. Woodard. The ancient languages of Asia and the Americas. New York: Cambridge University Press, 2008. – 286 p.

¹³ Зограф Т.И. Среднекитайский язык (становление и тенденции развития). – М.: Наука, 1979. – 340 с.; Яхонтов С.Е. Древнекитайский язык. – М., 1965. – 116 с.; Гуревич И.С. Историческая грамматика китайского языка: язык прозы на байхуа периода Сун-Юань (пинхуа). – Санкт-Петербург, 2008. – 225 с.

¹⁴ 向熹. 简明汉语史. –北京: 高等教育出版社, 1993; 王力. 汉语词汇史. –山东: 山东教育出版社, 1990. 857 页;

¹⁵ 邢永革. 明代前期白话语料词汇研究. –南京: 凤凰出版社, 2017. 347 页.; 徐时仪. 汉语白话史. –北京: 北京大学出版社, 2017. 462 页.

¹⁶ Roger D. Woodard. The ancient languages of Asia and the Americas. New York: Cambridge University Press, 2008. – P.136.; Курдюмов В.А. Курс китайского языка: теоритическая грамматика. – Москва, 2006. –С. 86-87.; Chou F. Stages in the development of the Chinese language. Zhongguo yuwen luncong. Taipei: Zhengzhong shuju, 1963. –P. 432-438; 王力. 汉语史稿. –北京: 科学出版社, 1958. 第 35 页.; 徐时仪. 汉语白话史. –北京: 北京大学出版社, 2017. 第 22-23 页.; Яхонтов С.Е. Древнекитайский язык. –Москва: Наука, 1965. – С.6-7.; Зограф Т.И. Среднекитайский язык (становление и тенденции развития). – М.: Наука, 1979. –С.3. va b.

tiliga yaqin tarjima qilingan va bayxua yozma til shakli sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan. Biroq, unga zid jarayon sifatida aynan Tang davri adabiyotda klassik til me'yorlarini saqlash, davr yodgorliklarni ham klassik til qolipidan chiqmasdan yozish "*fugu*" (tarixni tiklash) tarafdorlari ortagani til tizimi, jumladan, leksik qatlamni ham "bir qadam oldinga siljishga" yo'l qo'ymagan; 2) o'rta davr – Sung, Yuan va Ming davri birinchi yarmi (前期 *qiánqī*) ni o'z ichiga olgan bu bosqichda leksik sathida sezilarli o'zgarishlar, ikki morfemali so'zlarning son jihatdan keskin ortishi, lug'at tarkibining ichki va tashqi (jumladan, mo'g'ul tilining bevosita ta'siri bilan) omillar ta'sirida boyishi, grammatik ma'no anglatuvchi yordamchi so'zlarning ko'payishi bilan bayxua leksikasi tarixida yangi davrni belgilaydi. 3) yangi davr – Ming davri o'rtalaridan 1911-yil Sinxay inqilobigacha bo'lgan davr. Ushbu davr leksikasi hozirgi xitoy tili uchun fundamental leksikani shakllantirib bergan davr hisoblanadi, ya'ni tildagi leksik qatlamni struktur, semantik, funktsional jihatdan hozirgi xitoy tiliga takomiliga yetkazib bergan bosqich aynan shu davrga to'g'ri keladi. Xitoy tili leksikasi takomilining ana shu bosqichlarida Ming davri ilk bosqichi romanlari va xususan, asarlar leksikasi yordamida xitoy tili tarixida o'ziga xos "reabilitatsiya" jarayoni yuz bergan.

Tadqiqotning «**Ming davri xitoy tili leksikasining genetik tavsifi va davr romanlari tilining morfologik xususiyatlari**» nomli **ikkinchi bobida** davr yodgorliklarida o'z va o'zlashma qatlam so'zlar, ularning yasaliş usullari, struktur va funktsional xususiyatlari o'rganilgan.

Ming davri birinchi yarmi leksikasi davr xususiyatlarini o'zida yaqqol namoyon qiladi. Ushbu davr so'z boyligida Yuan davriga xos leksik birliklar salmoqli o'rin egallagan. Ming davriga kelib ular yangi xususiyatlarni aks ettirib boshlagan. Neologizmlar va yangi ma'no kasb etgan, til lug'at tarkibida oldindan mavjud bo'lgan so'zlarning miqdori ayni Ming davri birinchi yarmiga kelib sezilarli ortdi. Tang va Sung sulolalari davrida kam qo'llangan ko'plab leksik birliklarning Yuan va Ming davriga kelib, ishlatilish chastotasida o'sish kuzatildi va ular hozirgi xitoy tili leksik birliklari tarkibida ham qo'llanishda davom etmoqda. Bu hodislarning sababi, shubhasiz, jiddiy tadqiqotga ob'yekt bo'lishga arziydi¹⁷.

Ming davri romanlaridan "Sanguo yan'i" asarida suffikslar yordamida yasalgan so'zlar deyarli uchramaydi. Qo'shma so'zlarning aksariyati tobe-hokim munosabatli so'zlar bo'lib, birinchi komponent ikkinchisini izohlab kelgan turlari yetakchilik qiladi, bunday so'zlarning asosiy ulushi otlarga to'g'ri keladi. Asarda qayd etilgan fe'l turkum so'zlar esa ko'proq bir bo'g'inli, sodda strukturaga ega. "Sanguo yan'i" hamda "Shuyxu juan" romanlarida fe'llar tahlili yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) struktur jihatdan: "Sanguo yan'i" asarida asosan bir morfemali fe'llar son jihatdan ustun, "Shuyxu juan"da fe'llarning tuzilishi soddadan murakkabga o'zgargani kuzatiladi;

2) asarlarda fe'llarning asosan sintaktik qisman, semantik usulda ham yasalgani aniqlandi;

3) fe'llarning zamon ko'rsatkichi hisoblanmish 了 *le* qo'shimchasi "Sanguo yan'i" asarida mazkur vazifada deyarli qo'llanmagan, "Shuyxu juan" romanida esa faol ishlatilgan;

¹⁷邢永革. 明代前期白话语料词汇研究.-南京: 凤凰出版社, 2017. 第 24 页.

4) kesim to‘liqlovchisi 补语 *bǔyǔ*ning qo‘llanishi jihatidan ham “Shuyxu juan” hozirgi xitoy tiliga ancha yaqin, gap bo‘lagining qo‘llanish qoidalari deyarli o‘zgarmagan;

5) fe‘llarning inkor shaklini hosil qilish uchun hozirgi xitoy tilida asosan ikki morfema 不 *bù* va 没 *méi* qo‘llanadi, romanlarda ayni vazifani to‘rt morfema 不 *bù*、非 *fēi*、无 *wú*、未 *wèi* bajargan. Ming davri birinchi yarmida yozilgan romanlarda 没 *méi* “Sanguo yan’i” va “Shuyxu juan” asarlarida turdosh otlar struktur jihatdan bir komponentlikdan ikki komponentlikka o‘tishi va ayni chog‘da “Sanguo yan’i” asarida yakka komponentli turdosh otlarning “Shuyxu”da ikki komponentli shaklga kelgani aniqlandi. Ikki komponentli otlar asosan:

1) ot+ot: 天师 *tiān shī* “eng yuqori darajaga yetgan rohib”, 道童 *dào tóng* “o‘smir yoshdagi rohib”, 春台 *chūn tái* “xontaxta (yemak stoli)”, 菜蔬 *càishū* “taom, yegulik (meva va sabzavotlar)”, 马人 *mǎ rén* “otliq askar” va b.;

2) sifat+ot: 大虫 *dàchóng* “yo‘lbars”, 白身 *báishēn* “avom (qora xalq)”, 白地 *báidì* “bo‘sh joy” va b.;

3) fe‘l+ot: 落草 *luòcǎo* “qaroqchi”, “yo‘lto‘sar”, 搭膊 *dābó* “belbog‘”, “kamar” (odatda mato yoki boshqa to‘qima ashyodan tayyorlangan, belga bog‘lanib, ba‘zan pul olib yuradigan kartmon vazifasini ham bajargan).

Bundan tashqari, sonlar ishtirokida yasalgan otlar ham asarlarda kam miqdorda bo‘lsa-da uchraydi, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: a) sonlarning ma‘nosi yoki narsa-buyumning miqdoriga aloqador so‘zlar bo‘lib, masalan: 七条 *qītiáo* yettilik (rohiblarning ibodat, qiroat, tinglash, poklanish vaqtida kiyadigan kiyimlarini ifodalagan), 佛天三宝 *Fú tiān sānbǎo* buddaviylikning uch xazinasi: budda, muqaddas vedalar, budda rohiblari; bunday so‘zlar asosan buddaviylikka aloqador til birliklarida uchrashi kuzatildi; b) sonlarning grafik ko‘rinishiga ishora qilish orqali yasalgan birliklar, masalan, 横罗十字 *Héng luō shí zì* qo‘llarni yonga uzatgancha oyoqlarni birlashtirib yotish holati bunda insonning mazkur holati 十 *shí* “o‘n” iyeroglifiga o‘xshatiladi.

“Shuyxu juan” romanida otlarning 阿 prefiksi vositasida ham yasalgani aniqlandi. Masalan:

1) 阿公 *āgōng* yoshi katta erkak kishiga nisbatan qo‘llangan murojaat so‘z. 阿公休怪。(Sh.X, 21-bob).

2) 阿叔 *āshū* qayin iniga nisbatan murojaat so‘z. “阿叔，你且来厨下，和你说说话”(Sh.X, 17-bob).

3) 阿哥 *āgē* “aka”; “xo‘jayin (ayolning turmush o‘rtog‘iga murojaatida)”, 阿婆 *āpó* “xotin (erning turmush o‘rtog‘iga murojaatida)”, 阿舅 *ā jiù* “tog‘a” so‘zlari ham ishlatilgan bo‘lib, mazkur prefiks ishtirokidagi so‘zlar murojaat birliklari sifatida qo‘llangan. Bunday murojaat so‘zlar qarindoshlar o‘rtasida, agarda qarindoshlik aloqasi bo‘lmasa nutq yo‘naltirilgan shaxsga nisbatan yaqinlik, samimiylikni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Ming davri romanlarida otlar tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab bo‘lib, fe‘l turkumidan farqli ravishda, otlarda murakkab tuzilishga ega so‘zlar ko‘p uchraydi.

Otlarning yasashida affiksatsiya usuli ham istifoda etilgani asardan olingan misollar yordamida dalillandi. Davr yodgorliklarida qo'shma otlar yasashida atributiv modeli sermahsul bo'lgani aniqlandi.

Ming davrida nafaqat o'z qatlamning, balki o'zlashmalarning ham o'ziga xos o'rni bor. E'tiborni tortadigan jihat shundaki, davr tilida voqelangan o'zlashma qatlam va romanlarda ishlatilgan o'zlashmalar o'rtasida muayyan farqlar kuzatildi.

Umuman, xitoy tiliga tashqi manbalardan so'z o'zlashishining quyidagi yo'llari mavjud: a) fonetik kalka 音译 *yinyi*; b) semantik kalka 意译 *yiyi*; v) o'zlashgan so'z+xitoycha morfema (qorishiq so'zlar); g) yapon tilidan yapon tili qoida va me'yorlariga asosan xitoy iyerogliflari vositasida yasalgan so'zlarni o'zlashtirish¹⁸.

Xitoy tiliga, jumladan, xitoy tili leksikasiga tashqi omil ta'siri haqida so'z ketar ekan, millat tarixi, tashqi aloqalarining bu boradagi o'rni aniqlash lozim. Manbalarga ko'ra, xan millati qadimdan, Shan va Jou sulolalari davridayoq boshqa millatlar bilan turfa aloqalarni yo'lga qo'ygan, bu munosabatlar tilda ham aksini topgan. Xususan, shimoldagi xunlar va g'arbdagi boshqa millatlar bilan aloqalar shular jumlasidandir. Xan sulolasi imperatori U Di davrida Davan, Qang', Baqtriyaga elchilar yo'llangan, natijada, Xitoy va G'arb¹⁹ muloqoti rivojlana boshlagan. Olti sulola davriga kelib, Buyuk Ipak yo'li shakllangan. Xitoyga buddizmning kirib kelishi oqibatida sanskrit tili xitoy tili leksikasiga nihoyatda katta ta'sir o'tkazgan. O'zga millatlarning kundalik turmushida qo'llanuvchi narsa-buyumlar qatori, ularni ifodalovchi leksemalar ham xitoy tili so'z boyligidan joy olgan. Xitoy tiliga G'arbiy o'lkalar tilidan asosan, hayvonot va o'simlik dunyosi yoki maishiy hayotga xos so'zlar yoki istilohlar o'zlashgan. Masalan, 骆驼 *luòtuó* "tuya" xunlar tilidagi **da da** ning fonetik o'zlashmasi hisoblanadi. Bu so'z Chin sulolasi davri boshlaridayoq xitoy tiliga o'zlashgan bo'lib, grafik jihatdan bugungisidan farqlangan, Janubi-shimoliy sulolar davriga kelib, 骆驼 *luòtuó* tuya grafemalari orqali yozila boshlangan. 师比 *shī bǐ* yoki 屎比 *shǐ bǐ*, 鲜卑 *xiānbēi* so'zi xunlar tilidagi **serb** yirtqich ramzi tushirilgan metal kamar ilgagini anglatgan.

琥珀 *hǔpò* turkiy tildan **xu bix** so'zning fonetik kalkasi.

径路 *jìnglù* xunlar tilidagi **king luk** eni enlik pichoq so'zining fonetik kalkasi hisoblanadi.

目宿 *mù sù* davan tilidagi **buksuk, bux sux** o'tining fonetik kalkasi.

葡萄 *pú táo* yoki 蒲桃 tarzida ham yozilgan. Davan tilidagi **bādaga** "uzum" so'zining fonetik kalkasi hisoblanadi²⁰.

石榴 *shíliú* yoki 安石榴 *ān shíliú* leksemasi fors tilidagi **ānar** "anor" so'zining fonetik kalkasi bo'lib, Xan imperatori U Di davrida g'arbiy o'lkalardan Xitoyga kirib kelgan²¹. Yuqoridagi kabi qator leksik birliklar xitoy tiliga turkiy, arab, sanskrit, fors, ayrim afrika tillaridan ham o'zlashgan bo'lib, ular aniq narsa- buyumni atash uchun qo'llangan so'zlardir. Bunday buyum yoki mahsulot Xitoyda mavjud bo'lmagan, shu boisdan buyum yoki mahsulot bilan birga uning nomi ham xitoy tiliga kirib kelgan. Bu

¹⁸姜德梧主编. 高及汉语教程 (下册). -北京: 北京语言学院出版社, 1992. 第 91-92 页.

¹⁹ Bu o'rinda "G'arb" tushunchasi hozirgi "G'arb", ya'ni Yevropa tushunchasidan farqli qo'llangan.

²⁰向熹. 简明汉语史. -河北: 高等教育出版社, 1998. 第 535-537 页.

²¹向熹. 简明汉语史. -河北: 高等教育出版社, 1998. 第 535-537 页.

turdagi o'zlashmalar asosan fonetik kalkalar hisoblanadi. Xitoy tiliga singishi uchun ularning ba'zilar soddalashtirilgan. Davr tiliga o'zlashmalar asosan Xitoydan g'arbda joylashgan mamlakatlardan kirib kelgan. Xitoyning Yaponiya, Koreya kabi hududiy yaqin davlatlar bilan aloqalari Chin va Xan sulolalari davrida shakllangan, ammo u davrda xitoy tilining yapon va koreys tiliga ta'siri kuchli bo'lgan. Fonetik o'zlashmalardan tashqari, chetdan kelgan mahsulotlar nomlariga xitoycha morfemadan oldin 胡 *hú* morfemasi qo'shilgan. 胡麻 *húmá* "zig'ir", 胡瓜 *húguā* "bodring" kabi²².

Xitoyda olib borilgan tadqiqotlarda Ming davriga oid o'zlashmalarning manbai asosiy ikki turga ajratiladi: 1) Xitoy hududida yashagan kam sonli millatlar tilidan o'zlashgan so'zlar; 2) Xitoydan tashqari, xorijiy davlatlar tilidan o'tgan o'zlashmalar. Ichki, oz sonli millatlar tilidan o'zlashgan qatlam deganda, asosan, mo'g'ul tilidan kirgan elementlar nazarda tutiladi. Bu holat, shubhasiz, Yuan davri Xitoyning mo'g'ullar boshqaruvida bo'lgani va mo'g'ul tilining xitoy tiliga ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir²³.

Ming davri romanlarida qo'llangan sanskritdan o'zlashgan leksemalarning aksariyati semantik kalkalar hisoblanadi. Biroq, ularning orasida fonetik o'zlashmalar ham yo'q emas, jumladan, 头陀 *tóutuó* (asl kelib chiqishi sanskritda *dhuta*) asarda "soch qo'ygan rohib" ma'nosida ishlatilgan. Yoki bir qancha teonimlar tarkibida qo'llangan 佛 *fú* yoki *fó* iyeroglifi xitoy tilida dastlab mavjud bo'lmagan, buddizmning kirib kelishi bilan iyeroglif va "Budda" so'zini ifodalovchi mazkur leksema shakllangan. U sanskritdagi "buddha" so'zining xitoy tilidagi fonetik o'zlashmasi hisoblanadi. Ba'zan 佛 陀 *fótuó* shaklida beriladi.

Ming davri xitoy tili leksikasida o'zlashmalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotda davr leksikasida o'zlashmalarning manbalari sifatida mo'g'ul, fors, arab, malay, turkiy, sanskrit, ingliz, lotin, ispan, portugal, uyg'ur tillari ko'rsatilgan va ashyoviy misollar bilan asoslangan bo'lsa-da, Ming davri birinchi yarmida yozilgan "Shuyxu juan" romanida faqat sanskritdan o'tgan so'zlar, mo'g'ul tilidan kirgan ayrim morfemalar qo'llangani aniqlandi. Ming davri romanlarida tarixiy mavzuga qaytish, asarda Sung davri leksikadan faol foydalanilgan.

Tadqiqotning «**Ming davri romanlari leksikasining funksional-semantik xususiyatlari**» deb nomlangan **uchunchi bob**ida davr romanlari leksikasining semantik xususiyatlari muayyan mavzu guruhlariga ajratilgan holda tahlilga tortilgan.

Leksika tadqiqida so'zlarni guruhlariga yoki ma'lum bir turlarga tasniflagan holda tahlil qilish bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy bo'g'ini sanaladi. Zero, aynan muayyan tasnif asosida leksika tahlilida uning ma'no xususiyatlari, so'zlarning ma'no sathida kechgan evolyutsion jarayon, muayyan til yoki tilning muayyan davr xususiyatlari borasidagi aniq xulosalarni olish imkoni yuzaga keladi.

Ming davri ijtimoiy hayotida kechgan erkinlashish jarayoni, Xitoyda ijtimoiy sinflarni ajratuvchi omillardan sanalgan til shakllarini qo'llashdagi tafovut bu davrga kelib kamayishni boshlaydi. Ijtimoiy hayotda kechgan bu jarayonlar adabiyotda o'z aksini topgani tadqiqotning asosiy manbalaridan bo'lgan "Shuyxu juan" romanida

²²向熹.简明汉语史.-河北: 高等教育出版社, 1998. 第 540 页.

²³刘玲玲.明代外来词研究. 硕士学位论文.-辽宁师范大学, 2014. 第 26 页.

misolida ham ko‘rinadi. Albatta, bu o‘rinda til va adabiyotning o‘zaro ta‘sir masalasi muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarish badiiy asarlarda gavdalanishi, bu orqali xalq tilining badiiy nasrda keng qo‘llanishi, xalq tilining mavqeini oshirishi, uning adabiy til sifatida takomillashishiga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan asarlarning xalq tilida yozilishi ularning yana-da, jonli, xalqchil bo‘lishi va cheklangan sinflarda emas, balki butun xalq orasida, qolaversa, qo‘shni mamlakatlar adabiyotiga ham ta‘sir etishi darajasida ommalashishiga xizmat qilgan. Yirik hajmdagi badiiy nasrda xalq tilining qo‘llanishi shubhasiz, xitoy tili leksik qatlamining boyishiga, umuman, tilning tadrijiy taraqqiyotiga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Jumladan, “Shuyxu juan” romani aynan ijtimoiy hayotdagi erkinlashish jarayoni, xalqning tuzumdagi nohaqliklarga qarshiligi, ayrim o‘z manfaatidan o‘zgasini o‘ylamaydigan amaldorlardan ustun kelishi, umuman, yangi jamiyatning “qurilishi” va ana shu jamiyatning “quruvchisi” bo‘lgan xalq haqida ekanligi, davr xalq tilini aks ettirish imkonini bergan bo‘lsa “Sanguo yan’i” romanida harbiy va diplomatik mavzu yetakchilik qiladi. Ammo, har ikki asarning bir davrga xosligi ulardagi g‘oyaviy mushtaraklikni ta‘minlaydi. Ming davri romanlari leksikasini yanada aniq tavsiflash maqsadida tadqiqotning uchinchi bobi Ming davri birinchi yarimiga xos ikki roman, “Shuyxu juan” va “Sanguo yan’i” leksikasining mavzuiy tasnifiga bag‘ishlandi. Tasnif romanlardagi asosiy qahramon – yangi jamiyat “quruvchisi”ni markaziy ob‘yekt sifatida olgan holda, qolaversa, asarlarda aks etgan mavzudan kelib chiqib, romanlar so‘z boyligi asosiy uch guruhga ajratildi: 1) shaxsni ifodalovchi leksika; 2) joy va makonni anglatuvchi so‘zlar; 3) oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi so‘zlar.

Shaxsni ifodalovchi leksika o‘z navbatida yana kichik mavzu guruhlariga ajratilgan: 1) asar qahramonlarining ismlari, taxallusi yoki laqablari; 2) mansab, lavozim, kasb-korni ifodalovchi so‘zlar; 3) qarindosh-urug‘chilik istilohlari.

Ming davri romalarida antroponimlar, xususan qahramonlarning ismlari, laqab yoki taxalluslari o‘ziga xos ramziy ma‘no kasb etgani, ularning xarakterida kechgan o‘zgarishlar bevosita ularning ism yoki laqablari, taxalluslaridagi o‘zgarishlar vositasida ham aks etgani bilan alohida e‘tiborga molik. Misol uchun “Shuyxu juan” asari qahramonlaridan biri 鲁达 *Lǔ Dá* ismi komponentlaridan 鲁 *lǔ* grafik jihatdan 鱼 *yú* baliq va 口 *kǒu* to‘rtburchak shaklidagi idishni tasvirlab, idishga solingan baliq, mazali (baliq ta‘miga nisbatan) ma‘nosini anglatgan. “Lun yuy”, “Dzuo juan” asarlarida 鲁 *lǔ* “telbanamo, ovsar” ma‘nosida qo‘llangan²⁴. Toponim sifatida 鲁 *lǔ* Chunchyu (Bahor va Kuz) davrida shohlik nomi, Shandung o‘lkasining janubida joylashgan hududni anglatgan. Urushuvchi shohliklar davriga kelib, Lu shohligiga Chu shohligi tomonidan barham berilgan. Hozirgi kunda ham mazkur leksema Shandung provinsiyasini anglatadi²⁵. Lu Daning ibodatxonaga kelishi va rohiblikni qabul qilishi bilan ismi ham o‘zgartiriladi. Uning rohiblik guvohnomasida ismi 鲁智深 *Lǔ Zhìshēn* tarzida yoziladi va bu haqida asarda shunday bitilgan: “灵光一点，价值千金。佛法光大，赐名智深” *Língguāng yīdiǎn, jiàzhí qiānjīn. Fófǎ guāngdà, cì míng Zhìshēn*. Ilohiy nurning bir

²⁴ www.zdic.net

²⁵ www.zdic.net

zarrasi ming tilloga teng. Budda qonunlari keng yoyilaversin, senga *Zhìshēn* (chuqur (haqiqatni) idrok etish) ismini beramiz. (Sh.X. 4- bob, -B. 61) 鲁达 ismidagi ikkinchi komponent xitoy tilining korpus lug‘atiga ko‘ra: 1) orqali o‘tmoq, bog‘lanmoq; 2) to‘liq; mutloq; 3) yetib bormoq; 4) ushalmoq (orzuga yetmoq); 5) yetkazmoq; 6) ko‘zlangan manzilga yetmoq; 7) familiya ma’nolarini ifodalaydi²⁶. *Lǚ Zhìshēn* qaroqchilar to‘dasiga qo‘shilgandan keyin 花和尚 *Huāhéshàng* laqabini oladi. Bunda birinchi komponent “gul” ma’nosini, qolgan ikki iyeroglif birgalikda “rohib” ma’nosini anglatadi. Uning bu laqabni olishiga manbalarda shunday izohni topish mumkin: Sung va Yuan sulolalari davrida jasorat ramzi sifatida yigitlar tanasiga tatuirovka chizdirish urf bo‘lgan. Bunday belgilar qisqartirib 花 *huā* deyilgan. *Lǚ Zhìshēn*ning ham tanasida ana shunday tatuirovkalar solingani va rohib bo‘lgani sabab shunday nom olgan. 花 *huā* so‘zning yana bir ma’nosi “soxta, aldamchi ko‘rinish” bo‘lib, *Lǚ Zhìshēn* rohiblikka kirgan bo‘lsa ham nafsini tiymagani bois shunday nom olgan. Va nihoyat uchinchi sabab Yuan davri dramalarida *Lǚ Zhìshēn*ning to‘dadagi laqabi “qoplon rohib” bo‘lib, qoplonning terisi xol shaklidagi gulsimon dog‘lar bilan qoplanganiga ishora deyiladi²⁷.

Asarda qarindosh-urug‘larni atash, ularga murojaatda qo‘llanadigan terminlar ham salmoqli o‘rin egallaydi, bunday terminlarning yozma nutq, standart tildagi shakli ham, og‘zaki so‘zlashuv nutqi yoki ayrim shevalarga xos variantlari ham qo‘llanib, ular ba‘zan turli qahramonlar tilida, ba‘zan bir qahramonning nutqida turlicha variantlarda ishlatilgan. Masalan: 且说这王进却无妻子，止有一个老母，年已六旬之上。*Qiěshuō zhè Wáng jìn què wú qīzi, zhǐ yǒu yīgè lǎomǔ, nián yǐ liù xún zhī shàng.* *Wáng Jìn*ning ayoli yo‘q edi, uning faqat keksa onasi bo‘lib, yoshi oltmishlardan oshgandi (Sh.X. 2- bob, -B. 25). Ushbu gapda “ona” ma’nosi 母 *mǔ* so‘zi bilan ifodalangan. Mazkur ma’noni anglatuvchi leksemalar ichida 母 *mǔ* eng qadimgi bo‘lib, piktogramma hisoblanadi. Shu bilan birga, 母 *mǔ* me’yoriy tilga xos leksik birlik hamdir. 六旬 *liù xún* birikmadagi 六 *liù* “olti” va 旬 *xún* aslida “o‘ntalik, o‘n kunlik, dekada” ma’nolarini anglatadi. 旬 *xún* yoshga nisbatan qo‘llanganda esa har “o‘n yillik”ni ifodalaydi, shu bois 六旬 *liù xún* “oltmish yosh” demakdir. 对娘说知此事，母子二人抱头而哭。*Duì niáng shuō zhī cǐ shì, mǔzǐ èr rén bào tóu ér kū.* Onasiga bo‘lgan voqeani aytgach, ona bola ikkovlon boshini changgalab yig‘lashibdi (Sh.X. 2- bob, -B. 23). Ushbu gapda 娘 *niáng* “ona” leksemasi ishlatilib, mazkur iyeroglif toshbaqa kosalari va hayvon suyaklaridagi bitiglardayoq qo‘llangan va fonoideogramma hisoblanadi. Dastlab “ayol”, “yosh qiz” ma’nolariga ega bo‘lgan, Tang davridan keyin “ona” ma’nosida qo‘llana boshlagan. Shuningdek, mazkur lesema yoshi katta ayollarga murojaat so‘z sifatida qo‘llangan, “imperator joriyasi”, “xotin”, “rafiqa” ma’nolarini ham anglatgan²⁸. Hozirgi xitoy tilida adabiy me’yor hisoblanmaydi, biroq ayrim shevalarda hamon qo‘llanishda. Bundan tashqari qo‘shma so‘z tarkibida kelib “qiz bola” ma’nosini ham anglatadi. Masalan: 姑娘 *gūniáng*. 娘儿两个商议定了。*Niáng er liǎng gè shāngyì dìngle.* Ona bola ikkovlon gapni (maslahatni) pishirishibdi (Sh.X. 2- bob, -B. 23). “Ona bola ikkovlon” birikmasi asarning bir sahifasida ikki xil: 母子二人 *mǔzǐ èr rén* va 娘儿两个

²⁶ <https://www.zdic.net>

²⁷ 李法白，刘镜芙. 水浒传词语词典(SHCD).-上海：上海辞书出版社，1989. 395 页-P. 324.

²⁸ <https://www.zdic.net>

niáng er liǎng gè tarzida bayon qilingan. Birinchi shaklga qaralsa unda 母 *mǔ* va 子 *zǐ* “ona” va “bola” yoki “o‘g‘il” birliklari me‘yoriy til *venyanga* xos leksemalar sanaladi. Keyinchalik, 子 *zǐ* “bola” yoki “o‘g‘il” so‘zining mustaqil ma‘nosi yo‘qolgan. 母 *mǔ* esa yakka holda qo‘llanmay qo‘ygan. Bundan tashqari “ikkalasi” ya‘ni “ikki odam” birikmasi ham 二 *èr* “ikki” (dona son) va 人 *rén* “odam” so‘zlari vositasida ifodalangan. Bu o‘rinda hisob so‘z va ot bir leksema, ya‘ni 人 *rén* “odam” vositasida berilgan. Ma‘lumki, *venyanda* alohida hisob so‘zlar kam ular aksar hollarda ot yoki boshqa mustaqil so‘z turkumlari yordamida ifodalangan. Ikkinchi birikmada esa aksincha, 娘 *niáng* “ona” va 儿 *er* “o‘g‘il”, 娘 *niáng* so‘zi bugungi kunda ham shevalarda yakka holda qo‘llanadi. Og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos leksema. 儿 *er* “o‘g‘il” ma‘nosida nisbatan keyingi davrlarda qo‘llana boshlagan, hozirgi xitoy tilida “o‘g‘il” 儿子 *érzi* deyiladi. “Son+hisob so‘z” birikmasi ham aynan ikkinchi jumlada hozirgi xitoy tilidagi variantda berilgan, o‘zidan keyin hisob so‘zi kelganda 二 *èr* “ikki” soni 两 *liǎng*ga o‘zgarishi hozirgi me‘yoriy grammatikalardan ma‘lum. Sondan keyin 个 *gè* hisob so‘zining qo‘llanishi ham yuqoridagi fikrimizning yana bir karra isbotidir. “Ona” va “o‘g‘il” ma‘nosidagi leksemalarning qo‘llanishida quyidagi jihatlarni ham ko‘rish mumkin. 娘道: “我儿三十六²⁹着, 走为上着。只恐没处走” Ona dedi: “O‘g‘lim, o‘ttiz olti strategiyadan ham biri qochishdir. Biroq qochib boradigan yerimiz yo‘q deb xavotirdaman” (Sh.X. 2- bob, -B. 23). “Ona dedi” birikmasi ayni sahifada yan quyidagi shaklda berilgan: 其母又道: “我儿, 和你要私走, 只恐门前两个牌军……” Uning onasi yana dedi: O‘g‘lim, sen bilan ketay desam eshik oldidagi ikki qo‘riqchidan qo‘rqaman... (Sh.X. 2- bob, -B. 23). Bu misolda “ona” so‘zi 母 *mǔ* vositasida berilgan va undan oldin uchinchi shaxs kishilik olmoshi qo‘llangan. 娘 *niáng* leksemasidan oldin kishilik olmoshi qo‘llanmasa ham kontekstdan gap 旬 *Wáng Jinning* onasi haqida borayotgani anglashiladi. Yana bir misolda 王进道: “母亲放心, 儿子自有道理措置他” *Wáng Jìn* dedi: “Ona(m) xavotirlanmang, o‘g‘lingizning unga nisbatan o‘ylab qo‘ygan rejasi bor” (Sh.X. 2- bob, -B. 23). Mazkur gapda “ona” va “o‘g‘il” ma‘noli leksemalar hozirgi xitoy adabiy tilida me‘yor hisoblanuvchi 母亲 *mǔqīn* va 儿子 *érzi* so‘zlari vositasida ifodalanadi.

Asarlarda o‘rin-joy, makonni anglatuvchi leksemalar ham alohida e‘tiborga molik. Mazkur mavzu guruhlariga kiritilgan leksemalar tilda kechgan o‘zgarishlar, so‘zlar va ularning tarkibiy qismlarida yuz bergan “xitoylashish” jarayoni haqida guvohlik beradi. Quyida shunday leksemalardan bir nechtasini keltiramiz:

邮亭 *yóuting* hozirgi xitoy tilida ko‘chalar yoki maydonlarda tashkil etilgan pochta bo‘linmalari, odatda, yog‘ochdan qurilgan kichik xona shaklida bo‘lgan³⁰. Ikki tilli lug‘atlarda: 1) arxaik leksika sifatida pochta stansiyasi; 2) pochta bo‘linmasi ma‘nolarini anglatishi ko‘rsatilgan³¹.

驿馆 *yìguǎn* so‘zi hozirgi xitoy tili izohli lug‘atiga kiritilmagan, ikki tilli lug‘atda ham qayd etilmagan.

²⁹ Bu yerda 《孙子兵法》dagi o‘ttiz olti jang strategiyasiga ishora qilinmoqda.

³⁰ 现代汉语词典(XHCD). –北京: 商务印书馆, 2005. 第1646-1647页.

³¹ Большой китайско-русский словарь (БКРС). Т.2. -М.: Наука, 1983. –С. 3469.

驿站 *yìzhàn* hozirgi kunda faqat toponimlarning tarkibida uchraydigan (masalan: 龙泉驿站 *Lóngquán yìzhàn* hozirgi Sichuan provinsiyasida joy nomi kabi) mazkur leksema qadimgi xitoy tilida hukumat qarorlari, yozishmalarini eltuvchilar to‘xtab, otlarini almashtiradigan, dam oladigan, tunaydigan joyini bildirgan³². Ikki tilli lug‘atda pochta stansiyasi deya izohlangan³³. 驿馆 *yìguǎn* va 驿站 *yìzhàn* so‘zlari uchun umumiy komponent 驿 *yì* iyeroglifiga “Shuoven”da “to‘xtash va otlanishdir” deya ta’rif keltirilgan³⁴. Bu ikki so‘z muayyan ma’noda o‘zbek tilidagi “karvonsaroy” so‘ziga ham to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, eski o‘zbek tilida qo‘llangan yomxonada istilohi “pochta bekati” yohud “karvonsaroy” ma’nolarini ifodalagan. Xususan, H. Dadaboyev ta’kidlaganidek, “Xitoy poytaxti Xonbaliq va boshqa shaharlar o‘rtasida yomlar faoliyat yuritgan. Chunonchi, Sukju shahridan taxtgochgacha 93 ta ma’mur, obod, har biri shahar yoki qishloq barobar yomlar qurilgan. Yomlar o‘rtasida bir qancha qarag‘u va kayday-fular mavjud bo‘lgan”³⁵.

Asarda har uchala so‘z sinonimik munosabatda qo‘llangan. Masalan:

路直沙平，夜宿邮亭驿馆。Yo‘l tekis, tunni karvonsaroyda o‘tkazamiz (Sh.X. 1- bob, -B. 6). Ushbu misolda 邮亭 *yóutíng* va 驿馆 *yìguǎn* so‘zlari birga qo‘llangan.

.....一行人从上了路途，夜宿邮亭，朝行驿站，远程近接，渴饮饥餐，不止一日，来到江西信州。 *Yīxíng rén cóng shàngle lùtú, yè sù yóutíng, cháo xíng yìzhàn, yuǎnchéng jìnjiē, kě yǐn jī cān, bùzhǐ yī rì, lái dào Jiāngxī Xìnzhōu*. Yo‘lga tushgandan keyin pochta qarorgohi (yomxonada)da tunab, yo‘l yurib yana yomxonada to‘xtab, uzoq manzilga yaqinlashib, chanqaganda suv ichib, ochiqqanda ovqatlanib, bir kun ham tin olmay Jyangsining Sinjou shaharchasiga yetib keldik (Sh.X. 1- bob, -B. 6). Ushbu gapda ham so‘zlar ma’nosida keskin farqlar kuzatilmay, safar davomida belgilangan joyda qo‘nim topib, keyin yana yo‘lga otlangan joylarga nisbatan qo‘llangan.

Yuqorida aytilganidek, 驿 *yì* + 馆 *guǎn* shaklida ikki komponent birikuvidagi so‘z bir tilli izohli va ikki tilli tarjima lug‘atlarida keltirilmagan. Asarda mazkur so‘z 驿站 *yìzhàn* istilohiga ma’nodosh so‘z sifatida qo‘llangan. Hozirgi xitoy tilida yopiq inshootlar, jumladan, mehmonxonada, restoran, xostel kabi so‘zlar 宾馆 *bīnguǎn*, 饭馆 *fànguǎn*, 旅馆 *lǚguǎn* tarkibidagi 馆 *guǎn* izohli lug‘atda quyidagicha ta’riflanadi: 1) mehmonlar kutib olinadigan, ularga xizmat ko‘rsatiladigan inshootlar, masalan, 宾馆 *bīnguǎn*, 旅馆 *lǚguǎn* “mehmonxonada” kabi; 2) bir davlatning boshqa davlatdagi vakillari uzoq muddat faoliyat olib boradigan joy. Masalan, 使馆 *shǐguǎn* “elchixonada”, 领事馆 *lǐngshìguǎn* “konsullik (idorasi)”; 3) muayyan xizmat ko‘rsatiladigan yoki savdo ishlari amalga oshiriladigan joy 理发馆 *lǐfǎ guǎn* “sartaroshxonada”, 照相馆 *zhàoxiàng guǎn* “suratxonada”; 4) madaniy ashyolar, buyumlarni saqlaydigan va tomosha uchun taqdim etadigan yoki madaniy va boshqa tadbirlarni o‘tkazadigan joylar: 博物馆 *bówùguǎn*

³² XHCD. –P. 1616.

³³ БКРС. Т.2. –С. 4002.

³⁴ 许慎.说文解字 (ShWJZ). –北京: 九州出版社, 2001. 第 559.页.

³⁵ Batafsil qarang: Dadaboyev H. Temuriylar saltanati va Xitoy imperatorligi orasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi.// “O‘zbekiston-Xitoy: tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Toshkent, 2018. -B. 170-173.

“muzey”, 展览馆 *zhǎnlǎn guǎn* “ko‘rgazmalar zali”; 5) qadimda o‘qituvchi dars o‘tadigan joy 坐馆 *zuò guǎn* 家馆 *jiā guǎn* odatda xonadonda dars o‘tish uchun tayyorlangan joylar³⁶. Qadimgi xitoy tilida 馆 *guǎn* nisbatan kichik joy xususan, uylarda dars o‘tish uchun ajratilgan joyni ifodalash uchun qo‘llangan bo‘lsa, uning “katta inshoot”, “yopiq zal” ma‘nolari keyin chiqqan va shunday otlarni yasashga xizmat qilgan. Asarda safardagilar to‘xtab dam oladigan, otlarni almashtiradigan joy 驿馆 *yìguǎn* so‘zi bilan berilishi, 馆 *guǎn* morfemasining hozirgi xitoy tilidagi funksiyasiga anchayin yaqinlashganini ko‘rsatadi.

Ming davri romanlari, xususan, “Shuyxu juan” so‘z boyligi kelib chiqishi va shakllanishiga ko‘ra, Sung davri leksikasini gavdalantiradi. Asarda sinonim, antonim, omonim so‘zlar tilning lug‘at tarkibi boyligi, nutqning ta‘sirchanligi, nutqda yashirin ma‘no, xususan, kinoya, ulug‘lash (xushomad), g‘azab kabi emotsionallikni ifodalash uchun xizmat qilgan. Davr yodgorliklari so‘z boyligi xitoy adabiy tili leksikasining semantik jihatdan ham shakllanishi va sayqal topishida muhim ahamiyat kasb etgan.

«Ming davri romanlarida frazeologik birliklar semantikasi» nomli to‘rtinchi bob davr yodgorliklarida qo‘llangan frazeologik birliklarning struktur va semantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Til birliklari, jumladan, frazeologik birliklarni ham semantik tahlil qilishdan oldin ularning struktur xususiyatlarini ochiqlash zarurati yuzaga keladi. Zero, frazeologik birliklarda butunning mazmuni qismga, qismning mazmuni esa butunga bog‘liq bo‘ladi. Aksar frazeologik birliklarda so‘zlarning mustaqil lug‘aviy ma‘nosi susayib, frazeologik butunlikdagi ma‘no muhim o‘rinni egallaydi.

Ming davri nasri, xususan, 《水浒传》 (“Shuyxu juan”) hamda 《三国演义》 (“San guo yan’i”) romanlarida frazeologik birliklarning bir necha turlari, xususan, idioma 成语 *chéngyǔ*, qanotli ibora 惯用语 *guànyòng yǔ*, maqol 言语 *yányǔ*, matal 俗语 *súyǔ*, jumboqli birikmalar 歇后语 *xiēhòuyǔ*lardan keng foydalanilgan. “San guo yan’i” romani bo‘yicha tuzilgan katta lug‘atda 421 ta frazeologik birlik (idioma, maqol va matal, jumboqli birikmalar) kiritilgan³⁷. Bizning statistik tahlilimiz “Shuyxu juan”da 500dan ortiq frazeologik birlik qo‘llanganini ko‘rsatdi. Xitoy tilida 熟语 *shúyǔ* frazeologizmlar tuzilishiga ko‘ra turlicha bo‘lib, idiomalar asosan to‘rt 惯用语 *guànyòng yǔ* turg‘un birikmalar uch komponentdan, maqol va matallar qo‘shma gap shaklida voqelanadi, jumboqli birikmalar ham qo‘shma gap tuzilishiga ega bo‘ladi, ammo nutqda ularning birinchi qismi, ya‘ni jumboqli qismi qo‘llanadi va uning ikkinchi qismi, ya‘ni jumboqning yechimi ifodalaydigan ma‘no nazarda tutilib, bu turdagi frazeologik birliklarda har ikki qism ham shakl va mazmun jihatdan sodda darak gap shaklida beriladi.

Ming davri romanlarida idiomalar tuzilishiga ko‘ra asosan to‘rt komponentli tarkibga ega, ammo, “Sanguo yan’i” asarida me‘yordan chekinish holati, ya‘ni yetti, sakkiz iyeroglifdan iborat idiomalar ham qo‘llangani tahlillar natijasida aniqlandi. Biroq,

³⁶ XHCD. –P. 504.

³⁷ 沈伯俊编. 三国演义大辞典. –北京: 中华书局, 2007. 第6页.

bunday idiomalarda ayrim soʻzlar mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan leksemalar sanalib, idioma tarkibida ham grammatik maʼno kasb etgani, shuningdek, asarlarda qoʻllangan idiomalarda komponentlarning oʻrin almashishi, grafik va leksik jihatdan xitoy tili boshqa manbalarida keltirilgan shakldan farqlanish holatlari mavjudligi xususida toʻxtamga kelindi. Bunday farqlarning sababi soʻz oʻyini, muallifning leksika va unga xos birliklardan foydalanishdagi mahorati bilan bogʻliq boʻlsa, ayrimlari tilning omofonlik xususiyati bois yuzaga kelgan deyish mumkin. Komponentlar faqat mustaqil yoki mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari birikishidan hosil boʻlgan. Idiomalarning sintaktik qurilishida feʼl turkumiga xos leksemalar yetakchi boʻlib, ularga bogʻlangan boshqa komponentlar mazmunni toʻldirish, maʼnoni aniqlashtirish yoki harakatning holatini taʼriflash uchun xizmat qilgan. Xitoy tilida ham boshqa tillarda boʻlgani kabi frazeologik birliklarda leksik birliklarning alohida maʼnosi susayib, butunning maʼnosi dominantligi ishdagi tahlillar asosida dalillandi. Tahlilga tortilgan idiomalardan qariyb 80%ida feʼl yetakchi komponent hisoblanadi. Ularning 50%ida komponentlar feʼl+ot shaklida, predikat+obʼyekt munosabatiga koʻra birikkani aniqlandi.

Xitoy bayxua adabiyoti yirik hajmdagi nasriy asarlar, xususan, “Shuyxu juan” va “Sanguo yanʼi” romanlari frazeologik birliklarni jamlagan ulkan xazina, desak mutlaqo mubolagʻa boʻlmaydi. Asarda qoʻllangan frazeologik birliklar nafaqat struktura va janr jihatdan, balki semantik xususiyatiga koʻra ham turlichadir. Frazeologizmlarni butun va qism oʻrtasidagi semantik bogʻlanishiga koʻra tasniflashdan tashqari, komponentlari maʼnosidan kelib chiqib, bir qancha mavzu guruhlariga ajratish oʻrinli. Chunonchi:

1) Zoonim va floronimlar ishtirokidagi frazeologizmlar:

势如劈竹 *shì rú pī zhú* idiomaning komponentlari 势 *shì* harakat yoki hodisa, vaziyatning yoʻnalishi (oʻsish dinamikasi va b.)ni ifodalaydi. 如 *rú* “goʻyo, misli” maʼnolarini anglatib, metaforani shakllantirgan. 劈 *pī* “pichoq yordamida ochish; qarshi borish” maʼnolarini anglatib, 竹 *zhú* “bambuk” soʻzini bildiradi. Bambukning bosh qismi (uchi) pichoq yordamida ochib olinsa, qolgani pichoqning toʻgʻri harakati bilan oson ikkiga ajraladi. Idioma ishning yoki muammoning huddi shu holatga oʻxshab oson bitishini ifodalash uchun qoʻllanadi. Mazmunan oʻzbek tilidagi “xamirdan qil sugʻurgandek” iborasiga yaqin keladi. Masalan: 曹操将得胜之兵，杀入城中，势如劈竹。 *Cáo cāo jiāng déshèng zhī bīng, shā rù chéngzhōng, shì rú pī zhú.* *Cáo Cāo*ning gʻalabasi va qalʼaga kirishi bambukni pichoq bilan ikkiga ajratgandek boʻldi (tez va muvofaqqiyatli) (S.Ya. 12- bob) 指望到此势如劈竹，便拿了这伙草寇，怎么知却又逢着这般对手。 *Zhǐwàng dào cǐ shì rú pī zhú, biàn nále zhè huǒ cǎokòu, zěnmē zhī què yòu féngzhe zhè bān duìshǒu.* Ishning oson bitishi uchun, bu qaroqchini oldim. Qachon qaramay raqib sifatida u qarshimdan chiqayapti (Sh.X. 57- bob).

2) Gastronomik frazeologizmlar: 肉山酒海 *ròu shān jiǔ hǎi* goʻsht va taomlar togʻ kabi baland, sharob va ichimlik dengiz misoli koʻp. Ziyofatning quyugʻ, moʻl-koʻlchilikda oʻrganini taʼriflashda qoʻllanadi. Masalan: 连日杀牛宰马，大排筵宴，庆贺卢员外。虽无炮凤烹龙，端的肉山酒海。 *Liánrì shā niú zǎi mǎ, dà pái yán yàn, qìng hè lú yuánwài. Suī wú páo fèng pēng lóng, duāndì ròu shān jiǔ hǎi.* Bir necha kun qoramol-u otlarni soʻyib, amaldor (qadimgi Xitoyda vazirning kotibi yoki oʻrinbosarini ifodalagan) Luni qutlab, katta ziyofat uyushtirildi. Oʻta noyob taomlar (soʻzma-soʻz:

qaqnusni dimlab, ajdar pishirilmagan bo‘lsa-da) bo‘lmasa-da, dasturxonga tortilgan noz ne‘matlar serob edi (so‘zma-so‘z: go‘shtli taomlar tog‘dek baland, sharob ummondek mo‘l) (Sh.X. 67- bob).

3) Harbiy sohaga oid frazeologizmlar: 里应外合 *lǐyìngwàihé* asli kelib chiqishi harbiy leksikaga oid turg‘un birikma bo‘lib, tashqi tomon (oldi qator) zarba bersa, ichki tomon mudofaa qilishini anglatgan harbiy taktikani nomlagan. Keyinchalik, qo‘llanish ko‘lami kengayib, bir-biriga mutanosib amalga oshiriladigan har qanday harakatni ifodalashda qo‘llana boshlagan. “Shuyxu juan”da ikkala ma’noda ham qo‘llanishini ko‘rish mumkin: 你只密密地寅夜修一封书缄，拴在箭上，射出城去，和宋先锋达知，里应外合取城。 *Nǐ zhǐ mì mì de yín yè xiūyī fēng shū jiǎn, shuān zài jiàn shàng, shèchū chéng qù, hé sòng xiānfēng dá zhī, lǐyìngwàihé qǔ chéng.* Sen yashirincha tunda xatni paykon uchiga qistirib qal’a tomonga otib mujgon yo‘lla, ham ichkari ham tashqaridan harakat qilib qal’ani egallaymiz. (Sh. X. 92- bob)

Yuqorida “Shuyxu juan” va “Sanguo yan’i” romanlaridan keltirilgan misollar, roman bo‘yicha tuzilgan leksikografik manba tahlili natijasida frazeologik birliklar tarkibida asosan fe‘l, ot, son, sifat mustaqil so‘z turkumlariga oid leksemalarning yordamchi morfemalarsiz birikish holati ko‘p uchraydi, asarlarda qo‘llangan frazeologik birliklarning mavzu ko‘lami keng bo‘lib, somatik frazeologizmlar, ranglar, zoonimlar, fitonimlar, sonlar va diniy leksikaga doir frazeologik birliklar qo‘llangan, degan xulosalarga kelish mumkin. Asarlardagi somatik frazeologizmlarda asosan 目 *mù* ko‘z, 口 *kǒu* og‘iz, 心 *xīn* qalb (yurak) leksemalarining qo‘llanish chastotasi yuqori. Ranglardan esa 青 *qīng* moviy, 白 *bái* oq, 赤 *chì* alvon so‘zlari faol qo‘llangan. Zoonimlardan asosan, 龙 *lóng* ajdarho, 凤凰 *fēnghuáng* qaqnus, 虎 *hǔ* yo‘lbars so‘zlaridan ko‘p foydalanilgani aniqlandi. Bunday idiomalarda ajdarho va qaqnus “noyob”, “kamyob”, “tansiq” ma’nolarini ifodalash uchun ishlatilgan bo‘lsa, yo‘lbars va ajdar so‘zlari ishtirokidagi frazeologik birliklar “xavf-xatar”, “dovyuraklik”ni anglatgan.

XULOSA

Xitoy tarixi, xususan, davlat tili, adabiyoti, madaniyati, tashqi va ichki siyosati kabi qator jabhalarda o‘ta muhim sanalagan Ming davrining birinchi yarmiga oid yozma badiiy nasr namunalari, asosiy manba sifatida tanlangan 《水浒传》 (“Shuyxu juan”) va 《三国演义》 (“Sanguo yan’i”) romanlari tili, xususan, morfologik, leksik-semantik va frazeologik tadqiqiga bag‘ishlangan mazkur ilmiy tadqiqot ishidan quyidagi asosiy xulosalar kelib chiqdi:

1. Ming davri romanlari Xitoyda asosan adabiyot va tarjimashunoslik qisman, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Asarlarning til xususiyatlari, leksik-semantik va grammatik qatlam masalalari xitoy tilshunosligida xitoy tili tarixiy leksikasi, xitoy adabiy tilining tadqiqi, bayxua leksikasi hamda ushbu til shaklining grammatik xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy asarlarda qisman o‘rganilgan. Ming davri birinchi yarmiga mansub romanlar leksikasi jamlangan lug‘atlar XXRda o‘tgan asrning oxiri va XXI asr boshlarida nashr qilingan bo‘lib, ikki leksikografik manbani sohada bajarilgan amaliy ishlar sifatida e’tirof etish o‘rinli.

2. Ming davri birinchi yarmiga oid romanchilik namunasi hisoblanmish “Shuyxu juan” Xitoyga jo‘g‘rofiy va madaniy yaqin mamlakatlar, ya’ni Yaponiya va Koreyada ham o‘rganilgan. Xitoy nasri durdonalari sanalmish ushbu asarlarning yapon va koreys adabiyotiga janr, syujet, falsafa va g‘oyalar borasidagi ta’siri tadqiqotlarda o‘rganilgan bosh masalalarni tashkil qiladi. Yapon olimlari tomonidan o‘tgan asrda “Xitoy Ming va Ching davri yodgorliklari tilini o‘rganish” bo‘yicha maxsus jamiyat shakllantirilgan bo‘lib, uning asoschilaridan Kosaka Dzyu’iti xitoy bayxua tili leksikasi hamda “Shuyxu juan” romani so‘z boyligi bo‘yicha tadqiqot olib borgan. Lekin olim asarlarida asosan bayxuada yaratilgan yozma yodgorliklar leksikasi izohi hamda “Shuyxu juan” romanida qo‘llangan yordamchi so‘zlar tahlili amalga oshirilgan.

3. Davr romanlari rus, yevropa va o‘zbek xitoyshunosligida ham ma’lum darajada o‘rganilgan. Bu boradagi tadqiqotlarning aksari adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalariga to‘g‘ri keladi. Asarlar leksikasi qisman xitoy tili, xususan bayxua tarixiga bag‘ishlangan ishlarda e’tirof etiladi. Biroq, yuqorida zikr etilgan ikki roman tilining morfologik, leksik-semantik sathlarini atroflicha o‘rganishga bag‘ishlangan izlanish na xitoy tilshunosligi, na xorij xitoyshunosligida mavjud.

4. Sohaga oid adabiyotlar tahlili xitoy tilini davrlashtirishda asosan uning fonetik va grammatik xususiyatlariga tayanilganlikni ko‘rsatdi. Ma’lumki, til taraqqiyot bosqichlarini belgilash, ularni davrlashtirishda leksik boylikning o‘rni beqiyos. Zero, tilning tinimsiz rivojlanishi, unda kechgan o‘zgarishlar dastavval uning leksik sathida o‘z aksini topadi. Qolaversa, fonetika ham, grammatika ham so‘z boyligidan ayro rivojlana olmaydi.

5. Ming davridan oldingi va keyingi xitoy adabiy tilini davrlashtirish masalasiga qaratilgan tadqiqotlar tahlili natijasida aniqlangan bo‘shliq hamda xitoy tili leksik sathida yuz bergan ko‘p qirrali o‘zgarishlardan kelib chiqib, xitoy bayxua tili so‘z boyligi tarixiy taraqqiyotida uch bosqich ajratildi: 1) qadimgi davr – *venyan* leksikasi poydevorida shakllangan va asosan, buddizmga oid diniy asarlar tarjimasida boyigan ilk bosqich, Xan davridan boshlab, Sung sulolasigacha bo‘lgan leksik takomil bosqichi; 2) o‘rta davr – Sung, Yuan va Ming davri birinchi yarmi (前期 *qiánqī*) ni o‘z ichiga olgan bu bosqichda leksik sathda sezilarli o‘zgarishlar, ikki morfemali so‘zlarning son jihatdan keskin ortishi, lug‘at tarkibining ichki va tashqi omillar bois boyishi, grammatik ma’no anglatuvchi yordamchi so‘zlarning ko‘payishi bilan xarakterlanadi; 3) yangi davr – Ming davri o‘rtalaridan to Sinxay inqilobi(1911-yil) gacha bo‘lgan davr. Ushbu davr leksikasi hozirgi xitoy tili uchun asos leksikani shakllantirib bergan davr hisoblanadi, ya’ni tildagi so‘z boyligini struktur-grammatik, semantik va funksional jihatdan hozirgi xitoy tili taraqqiyotiga yetkazib bergan bosqich aynan shu davrga to‘g‘ri keladi.

6. Ming davri ilk bosqichida yaratilgan romanchilikning ikki namunasi *bayxuada* yozilgan bo‘lsa-da, ma’lum darajada *venyan* elementlarini o‘zida jamlagan. Ming davri romanlarida so‘zlarni struktur jihatdan ikki yirik tur: sodda va murakkab so‘zlarga ajratish mumkin. Biroq, mazkur tasnifda faqatgina so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlar soniga tayanish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Xitoy tilida morfema va bo‘g‘in chegaralari aksar hollarda o‘zaro mos kelishiga qaramay, davr romanlari leksikasida bo‘g‘in va morfema so‘zning tarkibiy qismi sifatida turlicha qiymatga ega bo‘lgan.

7. Tub so‘zlar asosan fe‘l, son va olmosh turkumlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Otlarda sodda tuzilishga ega, ya’ni faqat bir bo‘g‘in (ayni damda bir morfema)dan hosil bo‘lgan

otlar boshqa turkum soʻzlarga nisbatan oz boʻlib, feʼllarning hosil boʻlishi sintaktik va qisman, semantik yoʻl bilan kechganini asarlarda qoʻllangan ashyoviy misollar yaqqol koʻrsatdi. Davr yodgorliklarida sonlarning maʼlum qismi ot turkum soʻzlardan yasalgan. Otlar yasalihi esa sintaktik, morfologik usullarda kechib, davr yodgorliklarida affikslarning soʻz yasalihi jarayonida ishtiroki oldingi davrlarga qaraganda faollashgan. Olmoshlarning hosil boʻlishida diaklektal omil yetakchilik qilgan. Aksar olmoshlar sodda tuzilishga ega boʻlgan.

8. Ming davr romanlari leksikasida oʻzlashmalarning ulushi unchalik sezilarli emas, ularning oʻzlashishida asosan buddizmning taʼsiri boʻlgan. Buddizmga xos oʻzlashmalar xitoy tilida soʻz oʻzlashtirishning fonetik kalka, semantik kalka va qorishiq usullarida shakllangan. Asarlarda qoʻllangan oʻzlashmalarda yakka boʻgʻindan tashkil topgan soʻzlar aniqlanmadi. Biroq, fonetik oʻzlashmalar strukturasi koʻra kamida ikki boʻgʻin va ayni damda, ikki morfema qoʻshilishidan yuzaga kelgan boʻlsa-da, komponentlarning oʻzlashmalar tarkibida mustaqil maʼnosi yoʻqolgani bois ularni qoʻshma soʻzlar sirasiga kiritish asossiz.

9. Ming davri romanlarida qayd etilgan shaxsga oid leksika tahlili xitoy familiyalarining shakllanishida toponim, professionalizm va etnonimlar asosiy omil boʻlib xizmat qilganini koʻrsatdi. Asar qahramonlarining ismlarida ularning suvrati va siyratiga chizgilar berish uchun tanlangan soʻzlarda koʻp maʼnolilik xususiyati yetakchilik qiladi. Davr yodgorliklari, xususan, “Shuyxu juan” romanida qahramonlarning taxallus va laqablari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday soʻzlar qahramonlarning fiziologik va psixologik holati, ularning qobiliyat va shugʻullangan mashgʻulotlariga muvofiq voqelangan boʻlsa-da, ularda ramziylik va koʻchma maʼno yetakchilik qiladi. Asardagi kasb-hunar, unvon, rutba, lavozim, mansab nomlarining aksariyati Sung davri xitoy tili leksikasini aks ettiradi.

10. Asarlarda qoʻllangan soʻzlar maʼno munosabatlari, xususan, sinonimik munosabatlarga boy. Romanlarda sinonim, antonim, omonim soʻzlar tilning lugʻat tarkibi boyligi, nutqning taʼsirchaligi, nutqda yashirin maʼno, xususan, kinoya, ulugʻlash (xushomad), gʻazab kabi emotsionallikni ifodash uchun xizmat qilgan.

11. Davr romanlaridagi frazeologik birliklar morfologik tarkibiga koʻra asosan feʼl, ot, son, sifat kabi mustaqil soʻzlardan tashkil topgan. Frazeologik birliklarning deyarli 80 %ida feʼl asosiy komponent boʻlib, toʻrt oʻzak morfema (iyeroglifli) idiomalarda asos komponent sanalgan feʼllar teng bogʻlanish munosabatiga ega.

12. Asarlarda qoʻllangan FBlarning semantik turlari sifatida metonimiya, senikdoxa va metaforik ifoda asosiga qurilgan frazeologizmlarga ajratish mumkinligi dalillandi. Shuningdek, FBlarning mavzu koʻlami kengligi asarlardan olingan somatik frazeologizmlar, ranglar, zoonimlar, fitonim, sonlar va sakral leksikaga doir frazeologik birliklar tahlili orqali asoslandi.

13. Ming davri romanlarida, ayniqsa “Shuyxu juan” romanida idiomalar tarkibining oʻzgartirib qoʻllanishi, tilning omofonlik xususiyati bois, idioma tarkibidagi muayyan leksemaning almashib qoʻllanishi, yoki bir maʼnoga ega idiomalarning ikki, uch, hatto, toʻrt variantlari qoʻllanishi xitoy tili frazeologizmlari fondining boyishiga salmoqli hissa qoʻshgan.

14. Ming davri birinchi yarmiga xos romanlarda tarixiy mavzuga qoʻl urilishi nafaqat siyosiy, falsafiy va mafkuraviy, balki tilning sofligini saqlash, xususan, til leksik

sathida ona tili ulushini orttirish, Yuan davrida tilga kirib kelgan sezilarli miqdordagi o‘zlashmalarni iste’modan chiqarish, sof xitoycha so‘z boyligini tiklash va keyingi davrlarga yetkazishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF
ORIENTAL STUDIES**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

MUSTAFAYEVA SAMIDA TOSHMUKHAMMEDOVNA

**MORPHOLOGICAL, LEXICO-SEMANTIC
AND PHRASEOLOGICAL FEATURES OF THE LANGUAGE
OF NOVELS OF THE MING PERIOD**

10.00.05 – Languages and literature of the people of Asia and Africa

ABSTRACT

of dissertation for degree of doctor of science (DSc) in philology

Tashkent – 2024

The theme of the doctoral studies (DSc) was registered by the Supreme Attestation Commission under number B2019.2.DSc/Fil169.

The doctoral thesis has been carried out at the Tashkent State University of Oriental Studies.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) is posted on the website of the Scientific Council (www.tsuos.uz) and on the Information and Education portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant: **Mannonov Abdurakhim Mutalovich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents: **Dadaboyev Khamidulla Aripovich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Nasirova Saodat Abdullayevna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Odilov Yorqinjon Rakhmonaliyevich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization: **National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**

The defense of dissertation will take place on « ____ » _____ 2024 at ____ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 at the Tashkent State University of Oriental Studies. (Address: 100047, Tashkent, Shakhrisabz Street, 16. Phone: (99871) 233-45-21; Fax: (99871) 233-52-24; e-mail: e-mail: info@tsuos.uz.)

The dissertation is available at the Information Resource Centre of the Tashkent State University of Oriental Studies (registered under the number No ____). (Address: 100060, Tashkent, Amir Temur Street, 20. Phone: (99871) 233-45-21.)

Abstract of dissertation sent out on « ____ » _____ 2024.

(Protocol at the register No ____ of « ____ » _____ 2024).

K.Sh.Omonov

Acting Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences, Professor

R.A.Alimukhamedov

Scientific Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences, Associated Professor

X.Z.Alimova

Chairman of the Scientific Seminar at the
Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Philological Sciences,
Professor

INTRODUCTION (annotation of the DSc thesis)

The relevance and necessity of the dissertation. In the field of world linguistics, the linguistic research of literary works has always acquired special importance. Firstly, literary works especially in the lexical, grammatical, and stylistic aspects of the language, comprehensively clarifies the scope of structural linguistics, not only for this field, but also for the contemporary research being conducted in the fields of cognitive linguistics and linguacultural studies. This enables us to provide accurate and valuable ideas, as well as to draw precise theoretical conclusions. Secondly, the study of literary prose reveals valuable sources in identifying the temporal characteristics of language formation, as well as in defining its developmental traditions and factors. Therefore, literary literature remains an essential source for addressing a series of relevant issues, such as determining the lexical foundation and grammatical structure peculiar to the language, portraying national thought in works and the creator of literature in the mentality of the nation that has become a creator of the world view, and identifying the stages of development of the language in which the work is created.

In world linguistics, the study of the historical development of a language in certain periods, especially on the basis of written monuments typical of historical periods, allows to obtain valuable information for research in the diachronic and synchronic aspects. After all, such studies are relevant in finding a solution to a number of issues, such as determining the dynamics of language development, determining the standards of the literary language of a certain period, provide clear conclusions based on the change in the lexical fund and stylistic possibilities, development, and change of grammatical values.

The friendly cooperation relations between Uzbekistan and China have deep historical roots and are developing rapidly in various economic, investment, financial, commercial, political, cultural, and humanitarian fields today. The progress of cooperative relations benefits both countries. "...Uzbekistan, as a friendly neighbor and comprehensive strategic partner of China, is sincerely satisfied with the successes achieved by this country in various fields. The development of multilateral relations with China has been and will remain one of the main priorities of Uzbekistan's foreign policy".¹ The strong development of mutually beneficial and strategic cooperation between Uzbekistan and China, based on a solid legal framework, in turn increases the demand for qualified specialists with deep knowledge and expertise in Sinology, as well as proficiency in the Chinese language, contributing to the growth of the quality in fostering personnel.

The dissertation research significantly contributes to fulfilling the designated tasks outlined in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, such as PQ–2909 of April 20, 2017, regarding further development measures for the higher education system, PQ–3271 of September 13, 2017, addressing the enhancement of the system for publishing and promoting book products, improving book readership and book culture, as well as stimulating interest in books. Moreover, it aligns with the decision of the Cabinet of Ministers of May 18, 2018, No. 376 on perfecting the system for translating

¹ Мирзиёев Ш.М. Узбекистан – Китай: дружба и сотрудничество длиной в тысячелетия// www.people.com.cn. 22-01-2024.

and publishing the best examples of world literature into the Uzbek language and translating Uzbek literary works into foreign languages, and with the decree PQ-4680 of April 16, 2020, concerning the comprehensive measures to further enhance the system for training personnel in the field of oriental studies, and to enhance scientific competency. Additionally, it is in accordance with the decision PQ-447 of December 21, 2022, regarding efficient organization of the activities of regional executive authorities within the framework of the new Uzbekistan government reforms, and with the presidential decree PF-60 of January 28, 2022, on the strategic development plan of Uzbekistan for 2022-2026, as well as other priority legal documents related to the mentioned activities.

The relevance of the research to the priority areas of development of the republic's science and technology. The dissertation was conducted in accordance with the priority direction of the development of the Republic's science and technology I. "Development of an information society and the promotion of social, legal, economic, cultural, spiritual-educational development, innovative economic development".

Foreign scientific research commentary on the topic of the dissertation.¹ Research on Ming Dynasty relics, specifically the language of relics of that era, has been conducted in leading higher education institutions and research centers around the world. These include 广西民族大学 Guangxi University for Nationalities (China), 四川外国语大学 Sichuan International Studies University (China), 大東文化大学 Daito Bunka University (Japan, East Culture), the Institute of Oriental Manuscripts of the Russian Academy of Sciences (Russia, St. Petersburg), and Tashkent State Institute of Oriental Studies (Uzbekistan). These research studies are still ongoing.

As a result of such research, monographic studies have been conducted on the lexical structure and semantic characteristics of the daily prose genre of the Ming Dynasty, the creation of a large dictionary in the Chinese language, the use of materials from the Ming Dynasty novel example "Shuihu zhuan" (China), the lexicon of the Chinese Baihua language, the auxiliary words in "Shuihu zhuan" (Japan), the historical grammar of the Chinese language, morphological characteristics of words used in pinyin, and grammatical constructions have been analyzed. Additionally, single-language explanatory and two-language translation dictionaries have been published. In addition, research has been carried out on the literature of Chinese excellent works and various works have been done in Uzbekistan in terms of translating into the Uzbek language. Specifically, research has been conducted on the prose poetics of the Qing Dynasty and the semantics of symbols in Tang Dynasty poetry. Pu Sungling's novellas have been translated into Uzbek from Tang Dynasty poetic works. In addition, the stages of development of the Chinese Baihua language are described based on Chinese scientific literature (Uzbekistan).

In the field of world linguistics, a series of studies are being carried out on the following research directions related to learning the language of the Ming Dynasty novels: Independent words in Ming Dynasty novels; Metaphorical use of language

¹ The review of foreign scientific research on the subject of the dissertation was carried out on the basis of the following sources: <http://www.gxmzu.edu.cn>, <http://www.sisu.edu.cn>, <http://www.cnki.net>, www.daito.ac.jp, <http://www.orientalstudies.ru>, <http://www.springernature.com>, <http://www.dissercat.com>, <https://tsuos.uz>, <https://diss.natlib.uz>.

elements in Ming Dynasty novels; Modifications in the Ming Dynasty lexicon; Lexicographic research on Ming Dynasty novels.

